

MA'RIFAT OSMONIDAGI YULDUZ

Bafoyev Javohir Jasur o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi 3-bosqich kursanti

ANOTATSIYA

Ushbu maqola yoshlarni vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalashda ularda adabiyotning ahamiyati hamda bugungidek mustaqil kunlarga erishimizda o'zining hayotini bag'shlagan, jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusovning ijodiy soha yo'lida amalga oshirilgan ishlarini o'rganish jarayonida to'plangan bilimlar asosida yozilgan.

Kalit so'zlar: Kambag'allar davri, Epoxa, jinlanmakchiman, aqlli jinni;

XX asr o'rtasida yarim asrdan ko'proq tanaffus bo'ldi. "Katta tanaffus" mahali o'quvchilar shoir she'rlarini yashirib, boshqa kitoblar muqovasi ichiga berkitib o'qishdi.

"Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki sen ham hur tug'ulg'onsen"- kabi erk va ozodlik ruhi ufurib turgan misralari mudragan yuraklarni uyg'otdi; bunday pafos ko'ngil ko'zi ochiq ziyolilar qalbini buloq suvidek pokladi. Nihoyat, uzoq musofirlik, sarson-sargardonlik safaridan so'ng ozod kunlari Cho'lpon erkin yurt bag'riga, hur Vatan quchog'iga chinakam yulduzdek porloq shoir bo'lib qaytdi, ardoq topdi.

Bugun shoir adabiy ijodi el ardog'ida; asarlari ta'limning barcha bosqichlarida o'qitilmoqda; tadqiqotchilari ham yetarli. Ayni damda ularning sochilib yotgan sadafdek so'zlarini, shoirning ko'ngil sirlarini o'z davrining vaqtli matbuotidan, adabiy to'plamlardan izlab topish, jamlab yuzaga chiqarish ishi ham to'xtagani yo'q. Qatag'on-qirg'in dovuliga yo'liqqan bu avlod adiblarining asarlari mustaqillik zamonida qayta-qayta bosildi. Bular orasida 2016 yili "Akademnashr" nashriyoti tomonidan chop etilgan to'rt jildli "Asarlar"i alohida o'rin tutadi. To'rtinchi jildda adibning adabiy-tanqidiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy maqolalari o'rin olgan.

Tabiiyki, ushbu kitobda yangilik nisbatan ko'p. Yuzdan ortiq maqolaning ellikdan ko'prog'i keyingi izlanishlar samarasi, ayni chog'da, avvalgi nashrlarda yo'l qo'yilgan tabdildagi xato-kamchiliklarning ko'pchiligi tuzatilgani seziladi. To'g'risi, ushbu nashr ustida filologiya fanlari nomzodi D. Ne'matovanning jiddiy ishlaganini, kitobni yangi manbalar bilan boyitganini alohida ta'kidlash lozim. Uchinchi jild hajman eng salmoqlisi. Uni professor N. Karimov va dotsent N. Yo'ldoshev nashrga tayyorlagan; jildda Cho'lponning uch dramasi, dunyo adabiyotidan tarjima qilgan U. Shekspirning "Hamlet" va A. S. Pushkinning "Boris Godunov" asarlari kiritilgan. Cho'lponshunos Dilmurod Quronov tayyorlagan ikkinchi jildga

adibning “Kecha va kunduz” romani, hikoyalari jamlangan. Bu manbalarning sinchkovlik bilan tabdil etilib, kitobxonlarga yetkazilganiga shubha yo‘q. Adabiy tur va janrlar asosida tartib berilgan har bir kitobda fazilatlar ko‘p...

To‘g‘risi, Cho‘lponning lirik merosi jamlangan birinchi jild ko‘proq e‘tiborimizni tortdi. Shoirning she‘riy biografiyasini tasavvur qilishga yordam beradigan ushbu jildni zahmatkash cho‘lponshunos Naim Karimov to‘plab, nashrga tayyorlagan. She‘riy matnlarning ayrim misralaridagi xato va kamchiliklarning o‘rinli tuzatilgani, izohlarga aniqlik kiritilgani alohida tahsinga munosib. Cho‘lpon “Qaytish” degan she‘rida:

Yana hamdamsiz qoldim,

Ko‘nglimga alam oldim,

Qo‘limga qalam oldim,

Yana jinlanmakchiman! –bandining oxirgi misrasidagi “jinlanmakchiman” so‘zi 1994,2013 yillardagi nashrlarda “jonlanmakchiman” tarzida xato berilgan edi. Shoirning “jonlanish”i bilan “jinlanish”i o‘rtasida katta bir tafovut bor. “Jinlanish” shoir Cho‘lponning g‘aroyib tafakkuri, sochilgan sirlari to‘g‘risida ko‘p ma‘lumot beradi. Chunki aynan shu so‘z “qalandardek yurib dunyoni” kezman shoirning o‘ziga “Qalandar” taxallusini tanlagani mohiyatini, “ko‘hna bir devona”, “majnunsifat galdir” tabiatini, xayoli ko‘kka uchgan “jinni yurak” hovliqishlarini namoyon qiladi. Julqunboy 1923 yili yozgan “Tilak” nomli hangomasida “Hozirgi shoir va adiblarimizdan: Fitratga insof, Elbekka ilhom, Cho‘lponga jinnilik, o‘ziga to‘zim... tilaymiz”, deb o‘rinsiz yozmagan edi. Cho‘lpon tabiatan o‘ziga xos nazarli, yuksak iste‘dodli, shoirona jazavali shaxs bo‘lgan, bizningcha. 20-yillarda erkalatib, Julqunboycha “jinnilik” tilashni muhit hazmi ko‘tarar edi. Ammo sekin-asta tuhmat va tanqidlar boshlanayotgan bir pallada shoir o‘zidan, qalamidan qoniqmadi. Chunki yozgan she‘rlari uning ishongan tog‘i, yeru osmoni edi. Ko‘ngli bo‘shliqqa to‘lib borayotganini sezgan shoir “ko‘ngil chechagini” – chin she‘riy kayfiyatini qo‘msadi. Shu bois 1927 yili yozgan haligi she‘rini “Qaytish” deb nomladi, chin san‘at, haqiqiy ijod quchog‘iga qaytishga chog‘landi. Shu bois, u “yana jonlanmakchi” emas, balki “yana jinlanmakchi” bo‘ldi. Shoir shunday niyatni ko‘ngliga tugib turarkan, oradan uch-to‘rt oy o‘tib, sho‘rolarning qizil matbuotida shoir sha‘nini toptaydigan, yil boshida chiqqan “Ayn” maqolasining davomi o‘laroq “Aqlli jinni” degan maqola paydo bo‘ldi. Shoir bo‘htonlar bo‘hroni ostida qoldi; unga “burchak jinnisi”, “devona” sifatleri taqaldi.

Darvoqe, eski yozuvdan o‘qir ekanman, “yorqin yulduzning”ning zarur bir qirrasini ham chiqib qoldi.

Cho‘lponning og‘zaki aytgan yoki allaqanday qog‘oz parchalariga yozib ketgan she‘riy misralari borligini eshitar edik. Shoirga ayb taqash, uni tanqid etish va ozod inson ruhini sindirish uchun yozilgan “Aqlli jinni” tarkibida Cho‘lponning ikkita to‘rtligi bor. Birisi “Epoxa” haqida. Maqola muallifi yozadi: “Bu – epoxa (davr) papirusi qutusig‘a mana bu she‘rni yozib:

<https://conferencea.org>

Bunday “Epoxa”ni chekib tugating,

Kullari ko‘klarga sovrilib ketsin!

Endi bu bechora odam bolasi,

Olovsiz, tutunsiz kunlarga yetsin! –

deyishi bilan “kambag‘allar davri – biz, boylar, mayda burjuaziya laganbardorlari – mafkurachilarini yondirdi. Bu davrning(mehnatkashlar davrining) kuli ko‘kka sovrilib, yer bilan yakson bo‘lsin”, deb qichqiradi...”. Talqinda yaqqol biryuqlamalilik bor; haligi she’r esa tarixiy dalil. Bu to‘rt qatorni ko‘pchilik eshitgan. Ammo Cho‘lponning “Epoxa”gacha “Toshkent”ga yozgan to‘rt qatori ham bor. Maqoladan ko‘chirma: “Cho‘lpon shu yilning 26-sentyabrida(1927-yil nazarda tutilyapti) “Toshkent” papirusining qutisig‘a she’rini yozib, markaziy idoralarimizdan bittasiga qoldirib ketadi.

“Toshkent”ning kulini ko‘kka sovrarmoq,O‘zbek yigitga yarashadimi?

Ayniqsa, “toshkent”li bir shaharparast,

Shahrini chekishga tirishadimi?Qarang, Cho‘lpon bu bilan nima demakchi? Bu “millat – vatan deya berib chakagim tushdi, millatlarni o‘zaro qirpichoq bo‘lishlarini ta’min qila olmadim, no‘mirim o‘tmadi”, demakchi-da, avvalgi fikridan qo‘l siltab, “shaharchilik” maqsadini ilgari surmakchi...”.

“Toshkent” hamda “Epoxa” papiroslarining qutisiga g‘ayrishiuriy ravishda hazil, so‘z o‘ynatib yozgan narsalarini matbuotga olib chiqib muhokama etish, shu asosda Cho‘lponni ashaddiy dushman ijodkori qiyofasida ko‘rsatishga urinish maqola muallifining asil maqsadi. Cho‘lponshunoslik tarixida “xalq dushmani”, “millatchiligi ga oid aybnomalar bor. Bu “jinni” maqola bilan mafkura korchalonlari shoirga yana bir ayb taqagan, ya’ni “shaharchilik” – mahalliychilik ham qilgan bo‘lib chiqadi. Shu bois muallif mamlakatning turli hududlari orasida hamkorlik borligi, ular o‘zaro “aka-ukalik bilan madaniyat tarqatib” yurishganiga urg‘u beradi. Holbuki Cho‘lpon o‘sha to‘rt qator she’ri bilan kashandalar chekadigan papirosga “Toshkent” degan tabarruk nomni qo‘yish shartmidi; boshqa nom qurib qolganmidi, demoqchi bo‘lgandir. Biror joyda bosilmagan bu to‘rt qator she’rga vulgar ma’no bergandan ko‘ra, unga estetik-axloqiy jihatdan yondashilsa, shoirning narsa-predmetlarga to‘g‘ri nom qo‘yish yuzasidan jo‘yali bir fikr bildirayotgani oydinlashadi.

Qiziq, Cho‘lpon o‘z shaxsiga qaratilgan bunday haqoratimiz tuhmat gaplardan keyin qanday xotirjam yashadi? Nechuk ijod qildi? Ehtimol, shunday tahlikalardan qand kasalini orttirib olgandir. Ta’qibchi xufiyalarning ko‘zlari va matbuotda to o‘limigacha yozilgan “xalq do‘st”larining so‘zlari Cho‘lpon boshini kundaga qo‘ydi. Shoir o‘limidan o‘n yillar oldin o‘ldirila boshlandi. Tirik jonga hayot shirin ko‘rinadi. Shunday ijtimoiy-siyosiy hujumlar ta’sirida Cho‘lpon jinlanishni tashlab, jinday o‘zgarishga majbur bo‘lgandir ehtimol. “Soz”ini sozlab, “Jo‘r”ini jamlagandir, balki...

Qarang, o‘rnida tuzalgan bitta shoyista so‘z tasavvurga shu kabi bir dunyo assotsiatsiya berishi mumkin. Shoirning dardu dunyosini, kayfiyati, hatto adabiy-ijtimoiy muhit ruhiyatini anglashga ko‘maklashadi...

Yana, birinchi jildda “Parcha” she‘rining “Xavflidir chunki anglamas yurak” misrasidagi xatolik “anglamay yurmak” tarzida to‘g‘irlangani, Cho‘lpon tarjima qilgan turk shoiri Ali Ulviyning “Qor” she‘rining mundarijadan olinib tashlangani, “Go‘zal Farg‘ona”, “Bu nima narsa?”, “Oppoq oy” kabi she‘rlarning avval chiqqan nashrlardagi nuqsonlari o‘nglangani yangi kitobning muhim yutug‘i sanaladi.

Biroq qiyosiy tadqiq va she‘riy matnlarni asliga moslab tiklash ishlari davom etishi lozim. Chunonchi, “Asarlar”dan “Shahrimiz qulochi” she‘rini o‘qidim.

Quloch otadi shahar,

Qulochlari keng.

Uch gazmikin, bilmadim,

Nimalarga teng!...Bandda mantiqsizlik yo‘qmi? Shahar qulochi uch gazmikan? Qo‘limda manba bor edi. Aniqlashtirish uchun lotin imlosida 1935 yili “Guliston” jurnalida bosilgan nusxaga qaradim. “Uch gazmikin, bilmadim” o‘rnida “Uning azmi, bilmadim” misrasi turibdi. Shaharning azmi, ya‘ni kattaligi haqida gap borayotgan ekan. Bunday qiyoslab o‘qish va tuzatishga da‘vatlar keyingi nashrlar takomili uchun yordam berishi tabiiy...

Cho‘lpon gohida “rassomdek xayolin chiza olmagach”, shoir sifatida o‘zini juda ojiz sezadi, ba‘zida beixtiyor “muhabbat osmonida go‘zal Cho‘pon”ga aylanadi. Goho somon parchadek muhit girdobiga topshiradi so‘zini, ba‘zan uzoq safarga chiqqan yo‘lovchi hisoblaydi o‘zini. Nima bo‘lganida ham, shunday ziddiyatlar girdobida ijod etgan shoir o‘zining “tovushi naydek” kuyi borligini yaxshi biladi. Cho‘lponning sadafdek sochilgan so‘zlaridan bamisoli marvarid shodalarini tuzish – cho‘lponona matnlarni sahilashtirib, qiyosiy-tanlama nashr uchun maxsus ilmiy-nazariy prinsiplar ishlab chiqish, “To‘la asarlar”ini sharh va izohlari bilan qayta bosishga tayyorlash va, umuman, adabiy merosining to‘liq manzarasini yuzaga chiqarish ishi hozirgi davr adabiyotshunosligi yelkasida turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ozod Sharafuddinovning “Tanlangan asarlar” saylanmasi, “Cho‘lponni anglash ” , “Adabiyot yashasa – millat yashaydi” nomli maqolasi ;
2. “Jahon Adabiyoti ”jurnali 2010-yil 10-son
3. Naim Karimov “Cho‘lpon” nomli ma‘naviy-ma‘rifiy asar
4. Abdulhamid Sulaymon o‘gli Cho‘lpon “Adabiyot nadur”, “Muhtaram yozguvchilarimizga” , “Ulug‘ hindi”
5. “O‘zbekiston adabiyot va sa‘nati” gazetasi 2010-yil 45-son.